

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
PATOLOGIK ANATOMIYA VA SUD TIBBIYOTI KAFEDRASI**



«SUD TIBBIYOTI VA VRACH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI» FANIDAN

O‘QUV DASTURI

3-KURS

Bilim sohasi:	900000 -	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910000 -	Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi:	60910100-	Stomatologiya

ANDIJON – 2025

Fan/modul kodi STVF-1602		O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 2,0	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 30	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari	30	30	60	

2

O'quv modulining maqsad va vazifalari

Fanning o'qitishdan maqsad: talabalarning sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi hamda sud tibbiyoti eksperti vazifasini bajarish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifalari:

- Talabalarni sud-tibbiy xizmatning protsessual va tashkiliy asoslari bilan tanishtirish;
- Murdani voqea sodir bo'lgan joyda ko'zdan kechirishda sud tibbiyoti sohasidagi mutaxassisning faoliyatini o'rgatish;
- O'lim yuz berganligini va vaqtini aniqlash usullarini o'zlashtirish;
- Kiyimdagi va tanadagi jarohatlarni tavsiflash;
- Talabalarga, turli sabablardan vafot etgan shaxslar murdasini sud-tibbiy tekshiruv usullari va ekspert xulosasini tuzishni o'rgatish;
- Talabalarni, o'tkir va o'tmas jismlar hamda o'qotar quoldan yetkazilgan jarohatlarni sud-tibbiy tekshiruv usullari bilan tanishtirish;
- Tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasi, shuningdek tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash, ko'rikdan o'tkazish dalolatnomasini va ekspert xulosasini tuzishning asosiy prinsiplari bilan tanishtirish;
- Daliliy ashyolarni yig'ish, o'rash, laboratoriyalarga yuborish usullarini o'rgatish;
- Tibbiy hujjatlar va dastlabki sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish bilan tanishtirish;
- Tibbiyot xodimlarining kasbiy huquqbuzarliklaridagi javobgarlik bilan tanishtirish;
- Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.
- Murda topilgan yoki voqea sodir bo'lgan joyda murdani tashqi tekshirish.
- O'limni tasdiqlash.
- Murda dog'larini tekshirish va yozma izohlash.
- Murda o'zgarishlariga qarab o'lim muddatini aniqlash.
- Jabrlanuvchidan anamnez yig'ish.
- Shilinmalarni yozma ta'riflash.
- Qontalashlarni yozma ta'riflash
- Latli yaralarni yozma ta'riflash.
- Kesilgan yaralarni yozma ta'riflash.
- Sanchilgan yaralarni yozma ta'riflash.
- Sanchilgan-kesilgan yaralarni yozma ta'riflash.
- Chopilgan yaralarni yozma ta'riflash.
- O'qotar yaralarni izohlashni o'rgatish.

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Moduldagi amaliy mashg'ulotlar mavzulari, ularni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

№1. Ma'ruza: Sud tibbiyotining predmeti va tarkibi. Sud tibbiyotining boshqa modullar bilan aloqasi. Oliy tibbiy ta'lim tizimida sud tibbiyotining ahamiyati. O'zbekistonda sud tibbiyoti rivojlanishining qisqacha tarixi. O'zbekistonda sud-tibbiy ekspertizaning protsessual va tashkiliy asoslari.

№2. Ma'ruza: Sud-tibbiy travmatologiya, mexanik jarohatlar.

№3. Ma'ruza: Sog'liqni saqlash sohasida qonunchilik asoslari. Tibbiyot huquqi predmeti va vazifalari.

- 1 **Amaliy mashg'ulot:** Xodisa va murda topilgan joyni ko'zdan kechirishni, xodisa joyini ko'zdan kechirishda mutaxassisning vazifalarini, murda sud tibbiy ekspertizasini o'rgatish.
- 2 **Amaliy mashg'ulot:** Sud tibbiy ekspertiza o'tkaziladigan xolatlarni, ekspert xulosasini, tanatologiyani, murdani erta va kechki belgilarini o'rgatish.
Amaliy mashg'ulot: Mexanik jaroxatlarni, o'tmas, o'tkir jismlardan jaroxatlarni, o'q otar qurollardan yetkazilgan jaroxatlarni o'rgatish. Tishlar ta'sirida jaroxatlanishni, tishlarning jaroxatlanishlarini, transport travmasini o'rgatish. **Mototsikl, traktor, poyezd, suv transporti va aviatsiya jarohatlari haqida qisqacha ma'lumot. Transport hodisalarida kompleks tibbiy sud ekspertizasi.**
- 3 **Amaliy mashg'ulot:** Tirik shaxslarning sud-tibbiy ekspertizasini, tan jaroxatlarining og'irlik darajasini aniqlash bo'yicha ekspertizasini o'rgatish. Jag-yuz soxasi jaroxatlarining og'irlik darajasini sud-tibbiy baxolashning xususiyatlarini, stomatologiyak statusi bo'yicha shaxsning identifikatsiyasi prinsip va usullarini o'rgatish. **Tibbiy-kriminalistik identifikatsiya. Biologik yoshni aniqlash. (Sud-biologik, sud-gistologik, tibbiy-kriminalistik ekspertizalar va tekshiruvlar). Sud tibbiy genetika (otalikni aniqlash).**
- 4 **Amaliy mashg'ulot:** Tibbiy xodimlarning qilmishlarini, tibbiy xatoliklarni, tibbiy amaliyotda baxtsiz xodisalarni, yatrogen kasalliklarni o'rgatish.
Amaliy mashg'ulot: Tibbiy xodimlarning fuqaroviy-huquqiy javobgarliklarini, mexnat qonunchiligi va tibbiy xodimlar faoliyatini, intizomiy jazo va uning qo'llanilishini o'rgatish. Tibbiy yordam ko'rsatish nuqsonlarini, ta'rifini, tibbiy yordam nuqsonlari tasnifini, nuqsonlar mohiyati va ularni yuzaga kelish sabablarini, tibbiy yordam nuqsonlarining oqibat ga ta'sirini o'rgatish.
- 5
- 6

Jami

Fan bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalarda bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi, mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tiladi, mos ravishda munosib zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llaniladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talaba tomonidan natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- o'lim holatlarining barcha ko'rinishlarida sud-tibbiy ekspertiza xulosasini tuza olish va

himoya qilish.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1	O'zbekistonda sud tibbiyotining tarixi. Sud-tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Miya o'limining diagnostikasi. O'lim vaqtini aniqlash. Evtanaziya turlari. Murda a'zo va to'qimalarning transplantatsiya maqsadida qo'llanilishi. Reanimatsiya va transplantatsiyaning huquqiy, ma'naviy va tibbiy jihatlari.
2	Yangi tug'ilganlik tushunchasi (akusherlik, pediatriya, sud-tibbiy). Pre-, intra- va postnatal davrlarda go'daklar o'limining xususiyatlari. Asfiksiyaning turli variantlarida o'limning vujudga kelish mexanizmi. Asfiksiyaning hayotlik vaqtida sodir bo'lganligini aniqlash va ularning morfologik belgilari.
3	Yopiq muhitdagi asfiksiya. Pozitsion asfiksiya Cho'kishda laboratoriya tekshiruv usullari. Suvdan chiqarib olingan murdada jarohatlarning differensial diagnostikasi.
4	Mexanikomillarning ta'sir etish sharoitlari. Kesma, sanchma, kesma-sanchma va Chopma jarohatlarning morfologik xususiyatlari. Jarohatning hayotlik vaqtida yetkazilganligini aniqlash. O'q otar quroldan jarohatlanish mexanizmi. To'siq orqali va deformatsiyalangan o'qlar bilan jarohatlanish xususiyatlari.
5	Pozitsion siqilish sindromining sud-tibbiy diagnostikasi. Favqulodda holatlarda sud-tibbiy ekspertiza o'tkazish xususiyatlari. Yuqori va past haroratdan yetkazilgan jarohatning tiriklikda yetkazilganligini, jarohat maydonini aniqlash.
6	Zaharli ximikatlar tushunchasi. Etil spirti va uning surrogatlari bilan zaharlanish. Opiatlar bilan zaharlanish. Nasha preparatlari bilan zaharlanish. Turli dori moddalari bilan zaharlanish. FOB bilan zaharlanishning xususiyatlari. O'limga olib kelgan zaharlanishlar xarakteristikasi. Qonning zardob izosistemasining sud-tibbiy ahamiyati. Ter, so'lak mavjudligini sud-tibbiy aniqlash.
	Jami:

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- Auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari maket, mulyaj, makropreparat va simulyatsion zallarda, markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- Sud tibbiy ekspertiza muassasalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- Ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;

- Vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish;
- Simulyatsion o'quv klinik kompyuter dasturlar bilan ishlash;
- Aholi orasida tibbiy ma'rifiy ishlarni suhbat va ma'ruzalar ko'rinishida o'tkazish;
- grafik organayzerlar ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash;
- fanni faol o'zlashtirishda talabalarning olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishi.

boshqa tadbirlarda ishtirok etishi.

Sud tibbiyoti fani bo'yicha amaliyotni o'tish davrida talabalar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda to'tilgan.

Amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

- voqea joyini ko'zdan kechirish;
- murdani topilgan joyida ko'zdan kechirish;
- o'lim yuz berganligini aniqlashning asosiy usullari;
- o'lim muddatini aniqlash;
- murda kiyimlarini ko'zdan kechirish va tavsiflash;
- ilk va kechki murda o'zgarishlari va jarohatlarini tavsiflash;
- tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
- tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish.

3

V. Ta'lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari.

Talaba modʻul yakunida:

- o'limning yuz berganligini aniqlash, tergovchi tomonidan tuziladigan dalolatnomada murda holatini va undagi kiyim, murda o'zgarishlari, jarohatlarni tavsiflash bilan tashqi ko'rik ma'lumotlarini qayd etish, o'lim muddatini aniqlash;
- hodisa sodir bo'lgan joyda biologik ashyoviy dalillarni topish, yig'ish va o'rashda tergovchiga yordam berish;
- murdalar sud-tibbiy tekshiruvini o'tkazish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'lim haqida vrach guvohnomasini tuzish;
- tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasini o'tkazish, ekspert xulosasi va dalolatnomasini tuzish, jumladan tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- to'satdan o'lim, mexanik jarohatlar, zaharlanishlar va boshqa sud-tibbiy ekspertiza ma'lumotlaridan ushbu noxush holatlarning profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazish;
- murda va tirik shaxslar sud-tibbiy ekspertizasida laborator tekshiruvlarga material olish va ushbu tekshiruvlar natijalarini baholash;
- tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari holatlarida o'tkazilgan ekspertiza materiallari bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar o'tkazish haqida ***tassavurga ega bo'lishi;***
- murdani tekshirish usullari;
- laboratoriya tekshiruvlari uchun murdadan material olish usullari;
- sud tibbiy tashxis tuzish;
- ekspert xulosasi to'xtamlarini tuzish;
- tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
- tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- voqea joyini ko'zdan kechirish;
- murdani topilgan joyida ko'zdan kechirish;
- o'lim yuz berganligini aniqlashning asosiy usullari;
- o'lim muddatini aniqlash;
- murda kiyimlarini ko'zdan kechirish va tavsiflash;

- ilk va kechki murda o'zgarishlari va jarohatlarini tavsiflash;
- tirik shaxslar ekspertizasini o'tkazish usullari, xulosa va dalolatnoma tuzish;
- tan jarohatlarining og'irlik darajasini baholash;
- sud-tergov materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazish va xulosa tuzish kabi *malakalarga (shu jumladan amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.*

4 VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruxlarda ishlash;
- jamoa bo'lib ishlash;
- taqdimotlar tayyorlash;

5 VII. Kreditlarni olish uchun talablar.

Nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalar modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- oraliq nazorat (ON)
- sinov.

Modulga ajratilgan 2,0 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Sud tibbiyoti va vrach faoliyatining huquqiy asoslari moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni bajarish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50: 50).

Joriy nazorat uchun ajratilgan 2,0 kredit semestrlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Joriy nazorat – 2,0 kredit;

Oraliq nazorat – 0 (o'tilishi majburiy)

Talaba 8-semestrda belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida sinovli vazifani topshiradi va o'tish (saralash) balidan o'tsagina keyingi semestrda o'tadi. Talaba belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida sinovga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun sinovgacha bo'lgan muddat beriladi.

№	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baholash (JN)	100	2,0
2.	Sinov (o'tilishi majburiy)	100	0
	JAMI	100	2,0

SINOV

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba Sinovga kiritiladi. Sinovda talabaning

bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Sinov modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng kafedrada yozma, og'zaki, test yoki OSKI shakllarida o'tkaziladi. Sinovda 55 saralash ballini ololmagan talaba Sinovdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Sinov test usulida o'tkaziladi. Talaba o'tilgan mavzular bo'yicha yozma, test savollariga javob beradi. Test savollari bir javobli hamda turli darajadagi testlardan iborat.

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida sinovni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, sinov natijalari bekor qilinadi va sinov qayta o'tkaziladi.

Modul bo'yicha joriy va sinovning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash bali etib belgilanadi va bunda joriy nazoratga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi ballni to'plagan talabalar ushbu modul bo'yicha sinovga kiritiladi.

Talabaning semestr davomida modul bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan (JN, ON, Sinov) belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

Sinov, joriy va oraliq baholashdan so'ng semestr oxirida o'tkaziladi.

Joriy va oraliq nazoratda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun Sinovgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat (sinov) turlarini har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talabalar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda	5	a'lo

			<p>asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan); amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; modul bo'yicha nazariyalar, yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil</p>	4	yaxshi

			<p>hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan); amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va</p>		

			belgilangan soni jihatdan)ni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim	3	Qoni qarli

			rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham	2	Qoniqarsiz

			to'g'ri olmay.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'ri olmay.		
6	<p>Fanga oid o'quv materiallarni tayyorlashda M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi va quyidagi mavzular kiritildi (2023):</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Transport hodisalarida kompleks tibbiy sud ekspertizasi. 2. Tibbiy-kriminalistik identifikatsiya. Biologik yoshni aniqlash. <p>Ruprecht-Karls-Universität Heidelberg (84) ning fan o'quv dasturlaridan foydalanildi va quyidagi mavzular kiritildi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Sud tibbiy genetika (otalikni aniqlash). <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. G'iyosov Z.A.. Sud tibbiyoti. Darslik. Toshkent. GLOBAL-BOOKS, 2018 y. 2. Iskandarov A.I., Qo'ldoshev D.R. Sud tibbiyoti. Darslik. Toshkent. "MERIYUS" XMNK. 2009 y. 3. Sud tibbiy ekspertizalar va tekshiruvlarni o'tkazish bo'yicha milliy klinik protokol. Toshkent 2024 yil. 4. Forensic Dentistry: Principles and Practice. Jane A. Taylor, Jules A. Kieser. 2016. Wiley-Blackwell. (University of Newcastle (QS Dentistry #26), University of Otago (QS Dentistry #51-100)) 5. Forensic Odontology: Principles and Practice. Thomas J. David, James M. Lewis. 2018. Academic Press (Elsevier). (University of Tennessee Graduate School of Medicine (QS Medicine #101-150)). 6. Forensic Dentistry (2-nashr). David R. Senn, Paul G. Stimson. 2010. CRC Press. (University of Texas Health Science Center (QS Medicine #101-150)). 7. Evidence-Based Forensic Dentistry. Balwant Rai, Jasdeep Kaur. 2012. Springer. (University of Michigan (QS Medicine #26)) 8. Forensic Odontology: An Essential Guide. Catherine Adams (va boshqalar). 2014. Wiley-Blackwell. (Johns Hopkins University (QS Medicine #1)) <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Попов В.Л. и др. Судебная медицина. Учебник. Санкт-Петербург "Юридический центр" 2016 г. 2. Пиголкин Ю.И. Судебная медицина. Учебник. "ГЕОТАР-Медиа". 2016 г. 3. Индиаминов С.И. "Курс лекций по судебной медицине", Самарканд. "Оптима принт" 2014 й. 4. Indiaminov S.I. "Sud tibbiyoti". O'quv qo'llanma. Samarkand. "Optima print", 2012 y. 5. Солохин А.А. Руководство по судебной медицине. "Медицина" 2001 г. 6. Томилин В.В. Руководство по судебной медицине. "Медицина" 2001 г. 				

	<p>7. Ю.И. Пиголкина “Атлас по судебной медицине” учебное пособие. ГЭОТАР-Медиа Москва – 2015</p> <p>8. Imomov X.M., Saidumarova M.T. Sud tibbiyoti. O’quv qo’llanma. Farg’ona-2023. “Elektron”</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz 2. www.edu.uz 3. www.pedagog.uz 4. www.tma.uz 5. www.lex.uz 6. www.nurse.ru 7. www.coursera.org/ 8. http://yenka.com 9. www.atutor.ca 10. www.olat.org/ 11. www.dokeos.com 12. www.efrontlearning.net/ 13. www.ilias.de/ 14. www.dlearn.org/ 15. http://lamsfoundation.org 16. www.sakaiproject.org 17. http://dc.uz/ 18. www.active.uz/ 19. http://vacademia.com 20. http://elearning.zn.uz/ 21. https://gnomio.com 22. www.bilim.uz; 23. forens-med.ru
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashnig 2025 yil “_27_”_08__dagi _1-_sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>Z.Q. Hakimov - Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi</p> <p>X.M. Imomov - Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası assistenti</p> <p>A.R.Mamataliev - Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası dotsenti</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>D.Q.Chartaqov Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası dotsenti</p> <p>R.R Raxmonov Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrası mudiri, dotsent</p>